

RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING HUQUQIY-ASOSIY FAKTORLARI

Suyunov Dilmurod Xolmurodovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi iqtisod fanlari doktori professori

Asanov Timur Maqsyutovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli transformatsiya jarayonida huquqiy-asosiy faktorlarning o'ri va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat va raqamli jamiyatni shakllantirish jarayonida huquqiy me'yorlarning mustahkam va moslashuvchan bo'lishi shartligi asoslanadi. Shundan kelib chiqib, maqolada milliy va xalqaro tajriba, huquqiy institutlar, kiberxavfsizlik, ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli xizmatlarni tartibga soluvchi asosiy qonunchilik elementlari keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, huquqiy asoslar, elektron hukumat, kiberxavfsizlik, ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli xizmatlar, normativ baza.

Annotation: This article analyzes the role and significance of legal and fundamental factors in the process of digital transformation. It substantiates the necessity for legal norms to be robust and adaptable in the development of the digital economy, e-government, and digital society. Based on this, the article extensively covers national and international practices, legal institutions, cybersecurity, data protection, and the main legislative elements regulating digital services.

Keywords: Digital transformation, legal foundations, e-government, cybersecurity, data protection, digital services, regulatory framework.

Raqamli transformatsiya bugungi kunda iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va davlat boshqaruvining barcha sohalarida qayd etilayotgan global trenddir. Biroq, texnologik yangilanish muvaffaqiyati faqat texnik imkoniyatlarga emas, balki uning huquqiy bazasiga ham bog'liq. Huquqiy-asosiy faktorlar raqamli mutaxassisliklarning samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va fuqarolarning huquqlarini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlovchi huquqiy asoslariga Konstitutsiyaviy

kafolatlar ko'pgina davlatlar Konstitutsiyalarida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, axborotga ega bo'lish va raqamli xizmatlardan foydalanish huquqlari kafolatlangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir, 2023) axborot sohasidagi huquqlar va erkinliklarni alohida belgilab berdi.

Maxsus qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarga Raqamli transformatsiyani tartibga soluvchi asosiy hujjatlar qatoriga Elektron hukumat to'g'risidagi qonun, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun, Kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonun, Elektron tijoratni tartibga soluvchi qonunlar. Bunday qonunlar raqamli texnologiyalardan foydalanishda fuqarolar va tadbirkorlar huquqlarini ta'minlaydi, davlat organlarining raqamli faoliyatini yo'naltiradi.

Xalqaro huquqiy normalar va raqamli transformatsiya Xalqaro konvensiyalarga BMT, YuNESKO va Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (ITU) kabi tashkilotlar tomonidan qabul qilingan raqamli huquqlar, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish bo'yicha konvensiyalar milliy qonunchilik uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Yevropaga moslashish tendensiyasi Ayniqsa, Yevropa Ittifoqining GDPR (General Data Protection Regulation) standartlari dunyo bo'ylab shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun eng yuqori darajadagi namuna hisoblanadi va ko'plab davlatlar o'z qonunchiligini shu talablarga muvofiqlashtirmoqda.

Respublika biznes hamjamiyatining axborot hamkorligining samarali, ochiq mexanizmini ta'minlash maqsadida "Elektron litsenziyalash" davlat ma'lumotlar bazasi axborot tizimi yaratilgan. Tizim Qozog'iston Respublikasida "Elektron hukumat"ni shakllantirish va rivojlantirish dasturi hamda Qozog'iston Respublikasini ilg'or sanoat-innovatsion rivojlantirish bo'yicha 2010-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi doirasida amalga oshirildi. Birinchi davr isloxotlarni tahlil qilish orqali quyidagi natijalarni kuzatish mumkin: birinchidan davlat xizmatlarining umumiy hajmidan elektron shaklda olingan davlat xizmatlari ulushi 25% oshdi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi bo'yicha Qozog'iston Respublikasi mazkur davrda 52 pog'onani egalladi, Davlat organlarining ichki faoliyati raqamlashtirish borasidagi isloxotlarda ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. "Elektron hukumat"ning rivojlanish indeksi bo'yicha 33 - pog'onani egalladi. Raqamlashtirishning ikkinchi bosqichi, 2017-2022-yillarni o'zida qamrab olgan bo'lib, mamlakatda raqamlashtirish siyosatini amalga oshirish hamda raqamli texnologiyalarni bosqichma bosqich rivojlantirishga qaratilgan "Raqamli Qozog'iston" dasturidir. Mazkur davrda, raqamlashtirish borasidagi

jarayonlarni yangi bosqichiga asos solindi. 2017 yil 12 dekabrda 827-son qarori asosida Qozog'iston hukumati tomonidan 2018-2022 yillarga mo'ljallangan "Raqamli Qozog'iston" dasturini ishga tushirildi. Ushbu dasturning maqsadi "Qozog'iston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish va o'rta muddatli istiqbolda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali aholining hayot sifatini yaxshilashdir. Xulosada shuni ta'kidlash joizki, raqamli vositalarni joriy etish, mamlakatda mavjud AKT infratuzilmalari xususan, internetning ulanish qamrovi va tezligiga bog'liqdir. Raqamlashtirishga asoslangan davlat milliy strategiyasi, davlat xizmatlari va elektron hukumatning muvaffaqiyatli tashkil ettirilganligi mamlakatning raqamli diplomatiya yo'nalishidagi munosabatlarida aks etadi.

Huquqiy asoslar va kiberxavfsizlik Raqamli transformatsiya jarayonida ma'lumotlar oqimi va axborot tizimlari faoliyati ortishi bilan kiberxavfsizlik masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan Davlat darajasida kiberhimoya strategiyalari qabul qilinmoqda, Axborot infratuzilmasi ob'ektlarini muhofaza qilish choralari ko'rilmoqda, Elektron imzo va elektron identifikatsiya vositalari qonuniy jihatdan mustahkamlanmoqda.

Kiberxavfsizlik bo'yicha qonunlar raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun huquqiy zamin yaratadi. Raqamli xizmatlarni tartibga solishning huquqiy mexanizmlari bu albatta, Elektron hujjat aylanishi hisoblanib, qonuniy asosda elektron hujjatlar va elektron imzo bilan tasdiqlangan ma'lumotlar qog'oz hujjatlar bilan teng yuridik kuchga egadir. Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyotda Elektron savdo shartnomalarining qonuniyligini ta'minlash, onlayn-platformalar faoliyatini tartibga solish va elektron to'lovlarni himoya qilish choralari qonunlarda belgilangan. Bunda axborot shaffofligi va davlat organlarining raqamli hisobotlari eng muhim omil hisoblanib, bunda fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqini amalga oshirish uchun davlat organlari raqamli hisobot berish va onlayn ma'lumot taqdim etish mexanizmlarini huquqiy asosda joriy etmoqda.

Xulosa: O'zbekistonda raqamli transformatsiya nafaqat iqtisodiyot tarmoqlari, balki fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tizimini ham sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarmoqda. XQning yagona elektron ekotizimga to'laqonli integratsiyasi, sun'iy intellekt va Big Data yechimlari joriy etilishi fuqarolar muammolarini hal qilishni tezlashtiradi, ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytiradi. Hukumat organlari va jamoatchilik hamkorlikda amalga oshiradigan konstruktiv chora-tadbirlar "Inson qadri" g'oyasini amalda ta'minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Suyunov D. X. Kichik va o'rta biznesda yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari: loyihaviy yondoshuvlar va samaradorlikni baholash //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 79-83.
2. Suyunov D. X. Scientific and theoretical approach to the implementation of digital transformation of corporate governance in joint-stock companies// Actual problems of business development and entrepreneurship in the digital economy, international scientific and practical conference. 2022.12.23
3. Suyunov D. X. Kichik va o'rta biznesda yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari: loyihaviy yondoshuvlar va samaradorlikni baholash //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 79.
4. D.D. Suvanov. Digitalize enterprise business processes methodological approach. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. Volume 1, Issue 9, December, 2023 ISSN (E): 2938-3811.
5. D.D. Suvanov The digitalization of business processes itself scientific approaches to the characteristics. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. Volume: 19 December 2023.
6. D.D. Suvanov. Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. Elektron nashr.. 2024-yil avgust. № 8-son. 277- sahifa.
7. Suyunov D.D. Rakamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg'or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobiy tomonlarini joriy qilish. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376>. 2025, fevral.
8. Suyunov D.D. Rakamli iqtisodiyot tizimi iqtisodiyotni rivojlanishining elektron mexanizmi. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2559/2375>. 2025, fevral.
9. Suyunov D.D. Factors affecting the digitalization of corporate management in joint joint stock companies and scientific approaches to risk assessment. "Ekonomika i sotsium" №11(126). https://www.iupr.ru/.files/.ugd/b06fdc_5772198b03034ea1b82d7241321.acec8.pdf,index.true. 2024, noyabr.

10. Suyunova D.D. Korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasiga ilmiy qarashlar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 7-son, UO‘K: 35.073.6. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss.7-pp.393-402>.2024, iyul.

11. Suyunova D.D. Corporate in joint stock companies ways to use digital technologies to improve management. European journal of research development and sustainability (EJRDS). Vol. 4 no 09, issn: 2660-5570. <https://scholarzest.com/index.php/ejrd/article/view/3825/3055>.2023, sentyabr.

12. D.X.Suyunov O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlash mexanizmlari. Science and innovation 2 (Special Issue 13), 486-488.2023.

13. D.X. Suyunov Theoretical principles of improving the modern corporate control system in joint stock companies International journal of economic perspectives. 16 (11), 90-97.2022.